

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2023- yil yanvar-oktabr oylari)

1. Sanoat mahsuloti

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan **519,1** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **105,8** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 84,3 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 8,8 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 6,4 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish 0,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish o'sishining asosiy omili bo'lib tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 0,6 % ga, ishlab chiqaradigan sanoati korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida 3,5 % ga, hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida fizik hajm indeksi 9,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yilning shu davriga nisbatan rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqaradigan sanoatida (2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,3 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (112,4 %), shuningdek, elektr uskunalari ishlab chiqarish qayta ishlash sanoatida (128,5 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish (2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,5 %), kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar (2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 76,3 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 97,2 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga xom neft va tabiiy gaz qazib olish sanoatida (2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 100,2 %) ishlab chiqarish hajmining o'sishi sabab bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 107,9 % ni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining umumiy hajmidagi ulushi 29,0 % ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **38,3 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa **61,7 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni, nooziq-ovqat tovarlari o'sish sur'ati esa 109,4 % ni tashkil etdi.

2. Inflyatsiya darajasi

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi (INI) **106,2 %** ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 106,9 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 105,9 % ni, xizmatlar bo'yicha 105,5 % ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-oktyabrda yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishlarining ta'siri 2,94 foiz darajasini (keyingi o'rinlarda f.d.) tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar ta'sirining 47,2 % i to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining ushbu davrda yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga ta'siri 2,03 f.d. (32,6 %) va xizmatlarda 1,26 f.d. (20,2 %) kuzatildi.

O'zR MIIT-2018 bo'limlari orasida 2023-yilning yanvar-oktyabrda restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari INI 116,6 % ni, transport sohasidagi tovarlar va xizmatlarda 110,4 % ni, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari bo'yicha 108,6 % ni, sog'liqni saqlash sohasida 108,4 % ni, dam olish, sport va madaniyat sohasida 107,8 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklarda 106,5 % ni, uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy joylarga kundalik xizmat ko'rsatishda 105,8 % ni, turar-joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlarida va kiyimlar poyabzallar bo'yicha 104,0 % ni tashkil etdi. Ushbu davrda 100,0 % lik chegaradan past INI axborot va aloqa sohasidagi tovarlar va xizmatlar narxlarida (97,8 %) qayd etildi.

2022-yilning dekabriga nisbatan yig'ma INI o'sish sur'atining salkam 40 % idan ortig'i oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o'zgarishlari bilan ta'minlandi. Ularning ta'siri 6,23 f.d. umumiy o'sish sur'atida 2,59 f.d. ni tashkil etdi. "Transport" va "Sog'liqni saqlash" bo'limlaridagi narx o'zgarishlari ham salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu bo'limlar 2022-yil dekabriga nisbatan yig'ma INI jami 1,41 f.d. o'sish sur'atini yoki umumiy ta'sir darajasining 22,6 % ini ta'minladi. "Axborot va aloqa" bo'limida narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil bo'ldi va buning ta'sirida yig'ma INI 0,07 f.d. pasaydi.

3. Qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-oktabr oyida 119589,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 106,2 %ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 29876,8 mlrd. so'mi yoki 25,0 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 67750,3 mlrd. so'm yoki 56,6 %, norasmiy sektor subyektlari tomonidan 21961,9 mlrd. so'm yoki 18,4 % bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **234 693,8** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,3 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 17,3 % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 18,2 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 7,3 % ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 71,4 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 10,4 % ulush bilan 24 388,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **50 973,8** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **10 255,9** mln. AQSh dollariga yoki **25,2** % ga ko'paydi. Eksport hajmi **20 470,2** mln. AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **29,1** % ga ko'paydi (*Nomonetar oltin hisobiga ko'paydi va uning hajmi 6 870,3 mln. AQSh doll.* 2022-yilning shu davriga nisbatan – *2,3 martaga ko'paygan*). Import **30 503,6** mln. AQSh dollariga yetdi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,7** % ga o'sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: ichimliklar va tamaki o'tgan yilning mos davriga nisbatan - 18,0 % (15,2 mln. AQSh doll.)ga, mashinalar va transport asbob-uskunolari - 43,5 % (332,4 mln. AQSh doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar 15,1 % (131,4 mln AQSh doll.)ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 14,1 % (180,5 mln. doll.)ga ko'paydi.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mashinalar va transport asbob-uskunolari – 38,4 % (3 879,4 mln. AQSh doll.)ga, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 42,6 % (615,7 mln. AQSh doll.)ga hamda ichimliklar va tamaki – 34,3 % (39,5 mln. AQSh doll.)ga to'g'ri keladi.

6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **376,0** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **12,8** % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarining 19,3 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 4,3 punkt), transport xizmatlari 7,6 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,7 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 24,5 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,6 punkt), savdo xizmatlari 8,6 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,1 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarni 24,5 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,0 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari (88,4 trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 109,6 %), moliyaviy xizmatlar (86,8 trln.so'm, 119,3 %) va transport xizmatlari (85,5 trln.so'm, 107,6 %)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2023-yil 1-noyabr holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **490,4** mingtani (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 422,6 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahar (98 235 ta), Toshkent (45 582 ta), Samarqand (43 968 ta), Farg'ona (43 062 ta), Qashqadaryo (34 330 ta), Buxoro (31 404 ta) va Andijon (30 072 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 159 719 ta, sanoat sohasida – 70 914 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 39 229 ta, qurilish sohasida – 35 127 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 28 493 tani tashkil etadi.

2023-yil yanvar-oktabr oyida respublikada 76,7 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 74,3 mingtani tashkil etdi.

2023-yil 1-noyabr holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 13 019 tani tashkil etdi. Ulardan 4 822 tasi qo'shma korxonalarni va 8 197 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.